



## O`ZBEK VA QORAQALPOQ XALQ MAQOLLARINING MA'NODOSHLIK XUSUSIYATLARI

**Matjanov Sherali Ataxanovich,**  
*Ajiniyoz nomidagi NDPI o'zbek tili kafedrasi o'qituvchisi*

**Saburova Umida Kuanishbay qizi,**  
*Ajiniyoz nomidagi NDPI Turkiy tillar fakulteti 2-bosqich talabasi*

**Kabulova Ulbosin Rustem qizi,**  
*Ajiniyoz nomidagi NDPI Turkiy tillar fakulteti 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o`zbek va qoraqalpoq xalq maqollarining o`ziga xoslik xususiyati izohlanadi. Maqollarning o`rtasida ma'nodoshlik haqida fikr yuritiladi. O`zbek va qoraqalpoq xalq maqollari ma'nodoshlik xususiyati asosida bir-biri bilan solishtiriladi.

**Kalit so`zlar:** Maqol, ma'nodoshlik, mehnat, yo'l, inson, harakat, hunar.

O`zbek va qoraqalpoq xalqi bir-biri bilan ancha yillardan buyon ahil inoq yashab kelmoqda. Turmush sharoiti, yashash tarzi orqali ikki xalq bir-biriga singib, bir-birini to`ldirib turadi. Qoraqalpoq va o`zbek xalqlari o`zining ma'naviy boyliklari jihatidan yakdil. Qoraqalpoq xalqi og`zaki adabiyotining eng katta qismini maqollar tashkil etadi. Maqollar xalq turmushidan, uning ijtimoiy kelib chiqishi ta'siridan rivojlanib boradi. Maqollar mavzu jihatidan ham ancha xilma-xil.

Umuman olganda maqol xalq og`zaki ijodining eng yirik namunasi hisoblanib, qisqa va lo`nda, obrazli va obrazsiz, Grammatik va mantiqiy tugallangan bo`lishi kerak. “Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg`ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va soda poetik shaklga kelgan”<sup>1</sup> So`z ko`rki maqol deyishadi. Chindan ham gapida maqol qo`shib gapirgan insonning nutqida vazminlik seziladi, fikrlari ma'no-mazmunga boy bo`ladi.

Xususan qoraqalpoq xalq maqollarida yaxshilik-yomonlik, do`st-dushman, halol va harom, umuman turmush detallari yaqqol aks ettiriladi. O`zbek xalq maqollari ham ayni shu tarafi bilan mavzu jihatidan yaqindir. Maqol ibratli so`z demakdir. Maqol qoraqalpoqchada “maqal” yoki “naqil” deb nomlanadi. Mavzu jihatidan ikkala xalq maqollarida o`xshashlikni uchratamiz. Mehnat haqidagi ayrim maqollar misolida buni ko`rib chiqsak. “Miynettin’ ko`zin tapqan baxitdin’ o`zin tabadi.” Ushbu maqol o`zbek tilida “mehnatdan kelsa boylik, turmush bo`lar chiroylik” variant bilan

<sup>1</sup>Shomaqsudov Sh, Shorahmedov Sh. “ Ma'nolar maxzani” T-2001



ma'nodoshlik hosil qila oladi. Shuningdek, “Mehnat bilan el ko`karadi, yomg`ir bilan yer ko`karadi” kabi variantlarni ham qo`llash mumkin.

Maqollar odatda o`zbek tilida ifodalansada ularning bir necha xil ko`rinishlari mavjud. “Bekorchidan hamma bezor” – “Biykardan ha'mme biyzar”, “Altin o'tda belli, adam miynette belli” - “Oltin o'tda bilinar, odam mehnatda”, “Odam mehnati bilan go`zal” - “Adam miyneti menen suliw”.

Qoraqlapog`iston Respublikasi yer sharoitidan kelib chiqib, dehqonlar uchun eng og`ir muammo qadimgi davrlarda asosan suv muammosi bo`lgan. Xalqning kun kechirishi bilan bog`liq “Ana jer suw menen saqiy” , “Jer g`aziyna, suw- gawhar”, “Suw keldi - nur keldi” singari maqollar dehqonchilik bilan bog`liq muammolarni o`zida aks ettirib bergen. “Qoraqlapoq naql- maqollari og`zaki adabiyotda xalqning so`z mazmuni va so`z boyligi qanchalik o`rin tutganligini ko`rsatadi. Faylasuf V.Dal aytganidek, naql-maqollarni yaratishga yoki o`zgartirishga hech kimning haqqi yo`q”.<sup>2</sup> Maqollar asosan ikki gapdan tashkil topgan bo`ladi. Masalan, “Jigit kelse iske, g`arri kelse asqa”, “Daryanin’ suwin bahar tasiradi, adamnin’ kewlin miynet tasiradi”. “Ayriliq - o`limdan qattiq”. “Bunda ona yurtidan, ota-onadan, tug`ishgan jigarlardan suyukli mahbubdan, farzandidan, yor-do`stlaridan ayriliq nazarda tutilgan. Variant: “Ayriliqning shiddati, qon yig`latar muddati”<sup>3</sup>

“Azaga brogan xotin o`z dardini aytib yig`laydi” Qadim urf-odatlarga ko`ra biror odam o`lsa qarindoshlar, qo`ni-qo`shnilar aza egasi bilan tikka turib yig`laydi. Keyin uyga kirib davra orasida o`tiradi. Ayollar marhumning ta'rifini qo`shtiq qilib aytib yig`lashgan. Agar azador ayol aytib yig`lashni bilmasa, azaga kelgan ayollar o`zlariga tegishli biror marhumni yodlab uni ta'riflab yig`laydi. Maqolning to`g`ri ma`nosи shu. Lekin maqolni chuqur tahlil qilsak, agar biror kishi o`z dardini aytib tursa, ikkinchi bir odam unga o`z dardini aytib bir dardini ikki qilish hqolati buni ifodalab beradi.

Maqollar xalq turmushidan olinib xalq tomonidan yoziladi. Shu boisdan ham maqol xalq donoligi demakdir. O`zbek va qoraqlapoq xalq maqollari uslubi, shakli va ma`no-mazmun tarafidan ham bir-biriga anchayin yaqin. Maqollar xalq tomonidan yaratilib, xalqning ma'lum qismini tarbiyalash uchun ham vosita bo`lib xizmat qiladi. Maqol oyna kabidir. To`g`ri va egrini ajratadi, insonni to`g`ri yo`lga soladi. Jamiyatdagi chirkin illatlarni qoralaydi. Insonni ezgulik tomon undaydi. Qoraqlapoq xalq naql-maqollarida hazil javob aytishuv aytadigan, xalqning kundalik muloqot vositalari, so`z durdonalarini o`z ichiga qamrab oladi. “Adam miyneti menen suluw”

<sup>2</sup> A.r. Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar T-1979.

<sup>3</sup> Hikmatnomha O`zbek maqollarining izohli lug`ati



- “Odam mehnati bilan go`zal”. “Ko`z jumbay suw keshuw joq” – “ Suvni ko`rmay etik yechib bo`lmas”, “Ekkende joq, tikkende joq, qirmanda tayyar” - “O`oqda yo`q, mashoqda yo`q, xirmonda hozir”, “At qadirin joq biler, as qadirin toq biler” - “ Zar qadrini zargar bilar”, “Mal uyirin tabadi” - “ Ot aylanib qozig`ini topadi” kabi sinonimik qatorlarni keltirib o`tishimiz mumkin.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlardan xulosa qilib aytish mumkinki, o`zbek va qoraqalpoq xalqi etnik, ijtimoiy, ma`naviy jihatdan bir biriga ancha yaqin. Shuni alohida ta`kidlab o`tish lozimki, har qanday millat inson va jamiyatning ma`naviy dunyosiga aynan shunday ko`z bilan qarash, insonni borliqni anglashga, ma`nan barkamollikka chorlaydigan bunday beqiyos manbaning hayotimizdagi o`rni nihoyatda keng. Maqollar bizga haqiqatni anglatadi. Ajdodlardan avlodlarga ma`naviy boylik sifatida yetib boradi. Xalq maqollari mukammal badiiy ijod namunasi sifatida adabiyotshunos va folklorshunos olimlar tomonidan chuqr o`rganiladi. Maqollarning xalq orasida tarqalishi haqiqat aloqasi bilan daxldor. Xalq maqollari asrlar davomida o`zining shakl va mazmun jihatidan benazirligi bilan taniqli adiblar e'tiborini ham o`ziga jalb etib kelgan. Buyuk allomalar o`zining asarlarida xalq maqollaridan keng foydalangan. Alisher Navoiy, Abdulla Qahhor va boshqa bir qator allomalar ijodida maqollarni kuzatamiz. Maqollar, hikmatli so`zlar xalq iste'dodining yuksak namunasi hisoblanadi. Uning o`ziga xos xususiyati shundan iboratki, u o`tmish bilan hamnafaslik hissini uyg`ota oladi, zamonlararo ko`prik vazifasini o`taydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Hikmatnoma O`zbek maqollarining izohli lug`ati
2. Abdullayev. V.A “ O`zbek adabiyoti tarixi” Toshkent-1967
3. Q. Ayimbeyov “ Xalq danalig`i” 1988y
4. Qoraqalpoq folklori ko`p jildlik.1988y
5. Rustamov. A “So`z xususida so`z” Toshkent-1987
6. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) internet sayti.